XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-aprel VI-65-57-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi 119, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Tuman hokimligi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshitilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olinsin.

2.Tuman mahalliy byudjetning 2024-yil erkin qoldiq mablag‘lari 3 808 000 000 so‘mni tashkil etganligini, ushbu mablag‘dan hozirgi kunda ishlatilmay turgan 330 000 000 so‘m mablag‘ hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedov kiritilgan takliflar doirasidagi mablag‘ quyidagi maqsadga yo‘naltirilsin;

- tuman hokimligiga hokimiyat binosiga kuzatuv kamera o‘rnatish uchun 200 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga 2024-yil muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish, aholining kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan, o‘zgalar yordamiga muhtoj yolg‘iz keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun Ramazon oyi munosabati bilan oziq-ovqat va sovg‘alarga 91 500 000 so‘m;

- tuman hokimligiga Xalq deputatlari tuman Kengashining “Raqamli xalq deputatlari Kengashi” kompleks axborot tizimidan foydalanish uchun xizmat ko‘rsatish bo‘yicha "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona

integrator UZINFOCOM” MChJga shartnomaga asosan 11 000 000 so‘m;

- tuman Sport maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash konditsioner sotib olish uchun 27 500 000 so‘m, mablag‘ jami 330 000 000 so‘m mablag‘ ajratish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abdurayimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov)larga;

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borish topshirilsin.

4.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

6.Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

Kengash raisi MAXMATRAYEMOV BAXROM OMONOVICH